



IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDA INGLIZ TILINI O'QITISHNING INNOVATSION METODLARI QO'LLASH ORQALI O'QUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Begnayeva Sabohat Vladimirovna

A.Avloniy nomidagi PMMI mustaqil tadqiqotchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.17932874>

Annotatsiya. Ushbu maqolada chuqurlashtirilgan ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitish jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va rivojlantirish masalalari yoritilgan. Ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalar, axborot-kommunikatsiya vositalari va loyiha asosidagi faoliyatning o'rni tahlil qilingan. Ilmiy tadqiqot natijalari sifatida aniq metodlar va ularning samaradorligi keltirilgan.

Kalit so'zlar: maxsus ta'lim, ingliz tilini o'qitish, innovatsion usullar, o'yinlashtirish, interaktiv texnologiyalar, AAC texnologiyalari, inklyuziv ta'lim, vizual vositalar, differensial yondashuv.

Annotation. This article explores the issues of developing and shaping communicative competence in students through the use of innovative methods in teaching English within the framework of specialized (intensified) education. The study analyzes the role of modern pedagogical technologies, information and communication tools, and project-based activities in the educational process. Specific methods and their effectiveness are presented as the results of the research.

Keywords: specialized education, English language teaching, innovative methods, gamification, interactive technologies, AAC technologies, inclusive education, visual aids, differentiated approach.

Bugungi kunda globallashtirish jarayonlari va xalqaro hamkorlik aloqalarining tobora kengayib borishi tufayli ingliz tilining ahamiyati yanada ortib bormoqda. Xususan, ta'lim sohasida ingliz tilini samarali va zamonaviy yondashuvlar asosida o'qitish talab etilayotgan dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Ayniqsa, chuqurlashtirilgan ta'lim oladigan maktab o'quvchilarida kommunikatsiya qobiliyatini shakllantirish va rivojlantirish ularning kelajakdagi akademik va kasbiy faoliyati uchun muhim hisoblanadi.

Kommunikativ kompetensiya — bu faqat grammatik qoidalarni bilish emas, balki tilni turli vaziyatlarda ma'noli va maqsadga muvofiq tarzda qo'llash ko'nikmasidir. Bu kompetensiyani shakllanishida an'anaviy usullardan tashqari, innovatsion ta'lim texnologiyalari alohida o'rin tutadi. Ushbu maqolada chuqurlashtirilgan ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitish jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning nazariy asoslari va amaliyotdagi samarasi tahlil etiladi.



Chuqurlashtirilgan ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitishda innovatsion metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish masalasi ta'lim pedagogikasi va lingvodidaktika sohasida dolzarb ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu boradagi nazariy tahlil, avvalo, "kommunikativ kompetensiya", "innovatsion metodlar" va "chuqurlashtirilgan ta'lim" tushunchalarining ilmiy asoslarini tahlil qilishni talab etadi. Avvalambor, kommunikativ kompetensiya tushunchasi X. Vimmer, D. Hayms, M. Kanale va M. Sveyn kabi tilshunos olimlar tadqiqotlarida keng yoritilgan. X. Vimmerning ta'kidlashicha, kommunikativ kompetensiya faqat tilni bilish emas, balki uni turli ijtimoiy kontekstlarda maqsadga muvofiq ravishda qo'llash qobiliyatini anglatadi. M. Kanale va M. Sveyn (1980) esa kommunikativ kompetensiyani to'rt asosiy komponentga ajratishgan:

Grammatik kompetensiya – til qoidalarini bilish va ulardan foydalanish;

Ijtimoiy kompetensiya – ijtimoiy vaziyatga mos til formalarini tanlash;

Diskursiv kompetensiya – nutqning bog'liqligi va mantiqiyliigi;

Strategik kompetensiya – til yetishmasligini turli strategiyalar bilan to'ldirish qobiliyati.

Ushbu kompetensiyalar ingliz tilini o'qitish jarayonida tizimli ravishda rivojlantirilishi kerak. Ayniqsa, chuqurlashtirilgan ta'lim oluvchi o'quvchilar uchun bu ko'nikmalar muvaffaqiyatli muloqot qilish va akademik matnlar bilan ishlash uchun zarur hisoblanadi. Innovatsion metodlar esa an'anaviy o'qitish usullaridan farqli o'laroq, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, hamkorlikda ishlash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Zamonaviy pedagogik adabiyotlarda innovatsion metodlarga quyidagilar kiradi:

Communicative Language Teaching (CLT);

Project-Based Learning (PBL);

Flipped Classroom (teskari sinfxona);

Gamification (o'yinlashtirish);

CLIL (Content and Language Integrated Learning);

ICT-integrated learning (axborot texnologiyalari asosida o'qitish).

CLT metodi bo'yicha J. Richards va T. Rodjers ta'kidlaganidek, til o'rganishda eng muhim jihat — bu muloqot jarayonidir. Ushbu yondashuvda grammatik qoidalarni o'zlashtirish maqsad emas, balki muloqot vositasi sifatida qaraladi. Shu bois, darslarda jonli vaziyatlar, rolli o'yinlar va juftlikda ishlash kabi faol mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi.

Flipped Classroom metodi, ya'ni dars jarayonini "agdarish" — o'quvchilarga yangi bilimni mustaqil ravishda, masalan, video leksiylar yoki onlayn materiallar



orqali egallash, sinfda esa faol mashqlar va muhokamalarga ko'proq e'tibor qaratishni nazarda tutadi. Bunday yondashuv kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi, chunki o'quvchi dars vaqtida ko'proq gapiradi, mulohaza qiladi va faol ishtirok etadi. Gamification — ta'lim jarayonini o'yinlashtirish — motivatsiyani oshirish bilan bir qatorda, tilni zavq bilan va stresssiz o'rganish imkonini yaratadi. Interaktiv platformalar (Kahoot, Quizlet, Wordwall va boshqalar) orqali o'tkazilgan darslar o'quvchilarning faolligini sezilarli oshiradi.

CLIL metodi, ya'ni fan va tilni birgalikda o'qitish, til o'rganishni tabiiy muhitda amalga oshiradi. Masalan, tarix, biologiya yoki geografiya fanlari ingliz tilida o'rgatiladi. Bu jarayonda o'quvchilar tilni amaliy kontekstda qo'llash imkoniga ega bo'ladilar, bu esa leksik boylik va kognitiv ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida o'qitish (ICT integration) zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylangan. Interaktiv doska, mobil ilovalar, onlayn resurslar va multimediali darslar yordamida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning keng imkoniyatlari yaratiladi.

Yana bir muhim jihat — chuqurlashtirilgan ta'limning o'ziga xos xususiyatlari. Bunday maktablarda ingliz tili soati ko'p bo'ladi, o'quv dasturi chuqurlashtirilgan va tarkibiy jihatdan murakkab bo'ladi. Bu esa innovatsion metodlarni joriy etish uchun keng imkoniyat yaratadi. O'qituvchida fanni yuqori darajada bilish bilan birga, metodik tayyorgarlik ham bo'lishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, kommunikativ kompetensiyaning nazariy asoslari va innovatsion o'qitish metodlarining ilmiy jihatdan asoslanganligi ularni chuqurlashtirilgan ta'limda samarali qo'llash imkoniyatini taqdim etadi. Bu asoslar tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyatini belgilab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kanale, M., & Sveyn, M. (1980). Teoreticheskiye osnovy kommunikativnoy kompetensii. *Applied Linguistics*, №1, s. 1–47.
2. Richards, Dj. K., & Rodgers, T. S. (2014). *Sovremennyye metody prepodavaniya yazykov: Podxody i metody obucheniya*. – Moskva: Cambridge University Press.
3. Harmer, Dj. (2007). *Metodika prepodavaniya angliyskogo yazyka*. – Moskva: Longman. – 352 s.
4. Braun, X. D. (2001). *Prinsipy obucheniya inostrannym yazykam: interaktivnyy podxod*. – Nyu-York: Pearson Education.
5. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). *Content and Language Integrated Learning*. – Cambridge: Cambridge University Press.
6. Nazarov, K. (2020). Innovatsion ta'lim texnologiyalari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: O'qituvchi. – 144 b.
7. Hamidova, D. (2021). Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar. // *Filologiya masalalari*, №2(10), – B. 85–89.
8. Axmedov, A., & Yunusova, M. (2022). Chuqurlashtirilgan ta'limda chet tillarini o'qitishda innovatsion texnologiyalarning o'rni. // *Pedagogik mahorat*, №4(32), – B. 23–27.



FILOLOGIK TADQIQOTLAR TARAQQIYOTI VA TA'LIM MUAMMOLARI



MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

9. Crystal, D. (2003). *English as a Global Language*. – Cambridge: Cambridge University Press. – 212 p.